

**XALQ OG‘ZAKI IJODINING NUTQIY SAVODXONLIKKA
ERISHISHDAGI AHAMIYATI**

Muhammadaliyeva Nilufar Kamoliddin qizi
Farg’ona viloyati Rishton tumani MMTB ga qarashli
7-umumiy o’rta ta’lim maktabi 9-sinf o’quvchisi
O’qituvchi: Nozima Mirzaliyeva

Annotatsiya: ushbu maqolada muallif xalq og‘zaki ijodining nutqiy savodxonlikka ta’siri, nutq bilan bog’liq masalalar, ona tili va adabiyot darslarida turli xil metodlardan unumli foydalanish va integratsiya haqida ma’lumot berib o’tgan.

Kalit so’zlar: integratsiya, folklorshunoslik, nutqiy savodxonlik, 4K moduli, kreativlik, kritiklik.

Xalqimiz qadimdan farzandlarining nutqiga va uning ifodaviyligiga alohida ahamiyat bilan qaraganlar. Nutqning chiroyli va ravon bo‘lishini tarbiya bilan bog’laganlar. Shuning uchun ham bola tarbiyasida xalqning eng noyob durdonlarini vosita sifatida tanlagen. Ulardagi mardlik, dovyuraklik, halollik, topqirlik kabi sifatlarni shakllantirish mqsadida dostonlar, ertaklar, rivoyat va hikoyatlar to‘qib, bolalarning pokiza qalbida xavas uyg‘otganlar. Xalq og‘zaki ijodining inson tafakkuri rivojlanishida o‘rni beqiyos. Har bir janr ma’lum bir vazifa yo‘lida xizmat qiladi.

Ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilardagi og‘zaki va yozma nutq savodxonligiga erishishdan iborat. Bugungi kunda ta’lim tizimida bir qator amaliy tajribalar asosida ham o‘quvchilardagi fikr savodxonligi, nutqiy ko‘nikmalarni rivojlanantirish, nazariy bilimni amaliyatda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirish asosiy o‘rin egallamoqda. Grammatik qoidalarni qisqartirish evaziga o‘quvchilarda matn bilan ishslash, tinglab tushunish, o‘qib tushunish kabi ko‘nikmalar yaxshi rivojlanmoqda. Dars mashg‘ulotlari innovatsion metodlar yordamida yanada qiziqarli va jonli tashkil qilinishi pedagogning mahoratiga bog’liq. Ta’limga interfaol metodlarni kiritish natijasida fanlararo integratsiyaga ham keng yo‘l ochildi. Yangi nashrdan chiqqan darsliklarning tuzilishiga e’tibor berib qaralsa, matnlarning aksariyati turli fanlarni uyg‘unlashtirgan holda grammatik topshiriqlar berilgan.

7-sinf ona tili darsligida “Fizika hayotni yengillashtiradi” nomli matn berilgan bo‘lib, ona tili va fizika fanlarining uyg‘unligini ko‘rsatadi. Matndan olingan ma’lumot o‘quvchining amaliy faoliyati uchun foydali. Bajariladigan topshiriqlar asosida o‘quvchining hayotiy tajribasi oshib, kerakli bilimni egallaydi. Demak, ona tili va uning boshqa fanlar bilan integratsiya hosil qilishi ijobiyligi natija beradi. Fizika fani inson hayotida qanday rol o‘ynashi haqida kerakli ma’lumotga ega bo‘lgan o‘quvchida sekin-asta kreativ fikrlash hosil bo‘ladi. An’anaviy tarzda bajariladigan

topshiriqlardan ko‘ra noan’anaviy usulda amalga oshiriladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishiga alohida ahamiyat beriladi. Jamoaviy va individual yondashuvning natijasida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlari ham o‘sib boradi.

Ona tili va adabiyot darslarida noan’anaviy usullardan foydalangan holda mashg‘ulotlar tashkil qilish o‘quvchilardagi fan va mavzuga bo‘lgan qiziqishning ortishiga va raqobarbardosh kadrlar masalasiga chiroqli yechim bo‘la oladi. Nazariyani amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirib beradi.

Ona tili va adabiyot darslarini zamonaviylashtirish natijasida bir qator ijobjiy natijalarga erishib kelinmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimiga erish maqsadida mashg‘ulotlarni texnologiya bilan bog‘lash uchun multimedya materiallardan, animatsion dasturlardan, mobil ilovalardan foydalanish mumkin. O‘z navbatida, ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalangan holda ilmiy ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish qulay hisoblanadi. Rangli tasvirlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyati rivojlantirib beradi. Interaktiv metodlar asosida esa o‘quvchilarning erkin fikrashi va faolligini ta’minlab, jamoada o‘zaro hurmatni oshirish mumkin. Jumladan, 4K moduli asosida yangicha dars tizimlari, interfaol metodlar yordamida qiziqarli mashg‘ulotlar bazasi, fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi, faol harakatlanish, didaktik materiallardan unumli foydalanish kabilarning negizida o‘quvchi shaxsini hayotga tayyorlash masalasi turadi.

Zamonaviy ta’lim tamoyillari asosida ona tili darslarini yanada qiziqarli va hayotiyligini ta’minalash hamda foydali jihatlarini oshirish maqsadida xalq og‘zaki ijodi janrlardan foydalanishning ham ijobjiy taraflari juda ko‘p. o‘quvchi o‘z ona tilida bitilgan ertak, doston, maqol va topishmoq kabilardan, avvalo, xalqning boy o‘tmishi madaniyati bilan tanishadi. Qolaversa, janrlar yordamida nutq bilan bog‘liq muammolarga yechim topadi.

Ona tili darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali xalqning tilini saqlab qolish, xalqning madaniyatini rivojlantirish, ajdodlardan qolgan hayotiy tajribalarni keying avlodlarga yetkazish mumkin. Shuni inobatga olgan holda mashg‘ulotlarda o‘zbek folklorining nodir namunalaridan foydalanish, har bir darsni interfaol metodlar bilan boyitish, integratsiyani mustahkamlash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2002
2. Jamolxonov H.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005
3. Siddiq Mo‘min . So‘zlashish san’at. Farg‘ona . 1997.60-bet.
4. N. Muhitdinova. O‘zbek folklori, Samarqand-2019-yil